

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**DJABBERGANOV DJAXANGIR SABIRBAYEVICH**

**“GIL-BARXAN QUMI” SISTEMASIDA KERAMIK KOSHINLARNING  
QATTIQ FAZALI SINTEZI,  
XOSSALARI VA PISHISH JARAYONLARI**

**02.00.15 – Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Djabberganov Djaxangir Sabirbayevich**

“Gil-barxan qumi” sistemasida keramik koshinlarning qattiq fazali sintezi,  
xossalari va pishish jarayonlari .....3

**Джабберганов Джахангир Сабирбаевич**

Твердофазный синтез, свойства и процессы спекания керамических плит  
в системе «глина-барханный песок» .....21

**Djabberganov Djakhangir Sabirbayevich**

Solid-phase synthesis, properties and sintering processes of ceramic tiles in the  
“clay-dune sand” system.....39

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**DJABBERGANOV DJAXANGIR SABIRBAYEVICH**

**“GIL-BARXAN QUMI” SISTEMASIDA KERAMIK KOSHINLARNING  
QATTIQ FAZALI SINTEZI,  
XOSSALARI VA PISHISH JARAYONLARI**

**02.00.15 – Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K545 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti va O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ionx.uz](http://www.ionx.uz)) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Eminov Ashrap Mamurovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Ibragimov Aziz Baxtiyarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Alixonova Zuxrixon Saitdxodjaevna**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya ishi himoyasi O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 28 may 2025 yil soat 14<sup>00</sup> daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: [ionx@academy.uz](mailto:ionx@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (72 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 14 may kuni tarqatildi.  
(2025 yil 14 maydagi 72 - raqamli reyestr bayonnomasi.)

**N.X. Usanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

**J.S. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

**Sh.S. Namazov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., prof., akademik

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga annotatsiya)

**Dissertatsiya mavzusininig dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda oxirgi vaqtlarda yangi va istiqbolli xomashyo resurslar asosida keramik materiallar ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalardan foydalanib arzon tannarxli mahsulot ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Keramik materiallarning zaruriy texnologik xossalarning o'zgarishi xomashyo komponentlari pishishidagi qattiq fazali fizik-kimyoviy va fazaviy o'tish jarayonlariga funksional bog'liq bo'ladi. Chunki, keramik sopolakda mexanik mustahkam va zich struktura hosil bo'lishini ta'minlovchi alyumosilikat minerallari kristall fazalarini shakllanishining, hamda gilsimon va toshsimon xomashyo komponentlarining yuqori haroratdagi o'zaro kimyoviy reaksiyalarning jadallashuviga qattiq fazali sintez jarayoni asosiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, kam sonli xomashyo komponentlariga ega va energiyatejamkor yangi keramik omuxta tarkiblarni loyihalashtirish, hamda ularning qattiq fazali sintez natijasidagi pishish jarayonini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqiyosida hozirgi kunda, qurilish maqsadlaridagi butlovchi keramik materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalar asosida energiya tejankor tarkiblarini yaratish uchun qattiq fazali sintez, pishishi, fazaviy o'tishlarining fizik-kimyoviy jarayonlarini tadqiq etish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, yuqori haroratda alyumosilikat sistemasini tashkil qiluvchi komponentlarning qattiq fazali sintezi va pishishining fizik-kimyoviy jarayonlarini tadqiq etish, aralashma komponentlarining murakkab fazaviy o'tishi natijasida kvars, mullit, anortit minerallarining yangi kristall faza strukturalarining shakllanishini asoslash, "tarkib-struktura-xossa" funksional bog'liqlik qonuniyatlarini sintez qilinayotgan keramik materialning kuydirish haroratining rejimiga bog'liqligini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yangi istiqbolli mahalliy xomashyolar asosida qurilish maqsadlarida keramik materiallarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalarni o'rganish orqali ularni olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha muayyan ilmiy-amaliy natijalarga erishilib, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida qurilish materiallari hajmini 2 marotaba oshirish, noan'anaviy noruda xomashyo resurslarni jalb etish hisobiga xomashyo bazasini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan<sup>1</sup>. Bu borada, past haroratli texnologiya asosida keramik koshin olishda qattiq fazali sintezi, pishish jarayonlari va xossalarni tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 va 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

to'g'risidagi PF-4947, 2021 yil 9 iyundagi "Hududlarni sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6244 sonli Farmonlari, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335 sonli Qarori, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Chop etilgan adabiyot manbalarida, qattiq fazali sintez va pishish jarayonlariga, gilsimon va toshsimon xomashyo va ikkilamchi resurslari asosida keramik koshin tarkibi va olish texnologiyalarini ishlab chiqish, hamda ularning fizik-mexanik va texnologik xossalarini yaxshilash muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar keng yoritilgan. Bu borada, dunyo yetakchi olimlari Maslennikova G.N., Vereshagin V.I., Shukina L.P., Levitskiy I.A., Poznyak A.I., Lukin E.S., Zaxarov A.I, Rishenko M.I., Seabra M.P., Labrincha J.A., Ferrer S., Popova L.D., Lisachuk V.G., Abdraximov E.S., Shepochkina Yu.A., Dyatlova E.M., Tonello G., Lin Kae-Long, Baranseva S.E., Moroz I.X. va boshqalar keramik koshin olish texnologiyasi bo'yicha keng qamrovli va muhim natijalarga erishgan.

Mamlakatimiz olimlari Tadjiyev F.X., Sirajiddinov N.A., Azimov I.A., Ismatov A.A., Ismailov A.X., Irkaxodjayeva A.P., Eminov A.M., Abdullayeva R.I., Qodirova Z.R., Sabirov B.T., Tairov S.S. va boshqalar mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslar asosida xossalari yaxshilangan keramik koshin sintezi va olinishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va keramik materiallar, keramik koshinlar texnologiyasini rivojiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Hozirgi kungacha olib borilgan tadqiqotlarda ijobiy natijalarga erishilganga qaramay, iqtisodiy jihatlarni hisobga olgan holdagi energiya tejamkor ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanib, mahalliy xomashyo, Quyi Amudaryo hududi resurslari asosida, talab darajasidagi keramik koshin olish bo'yicha ishonchli va ilmiy asoslangan ma'lumotlar mavjud emas.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy tadqiqot ishlarining rejasiga muvofiq "Qurilish va texnik maqsadlarda silikat va funksional materiallar ishlab chiqarish uchun energiya va resurslarni tejovchi kompozitsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish" (2020-2023 yy.) budjet mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "gil-barxan qumi" sistemasida keramik koshinning qattiq fazali sintezi, xossalari va pishish jarayonlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Kulatau koni gilining kimyo-mineralogik tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish;

Kulatau koni gilining texnologik xossalarini va kuydirishdagi pishish jarayonlarini o‘rganish;

Tuproqqal’a massivi barخان qumining kimyo-mineralogik tarkibi va boshqa sifat hususiyatlarini o‘rganish;

“gil-barخان qumi” ikkilamchi sistemasi asosida energiya tejamkor tarkibli keramik koshinning qattiq fazali sintezi va “tarkib-struktura-xossa” funksional bog‘liqlik qonuniyatlarini kuydirish haroratiga bog‘liqliklarini aniqlash;

keramik koshin pishish jarayoniga, struktura hosil qilishiga, fazaviy tarkibiga va fizik-mexanik xossalariga massa komponentlarining ta’sirini tadqiq etish, hamda ularni olishning texnologik rejimlarini ishlab chiqish;

ikkilamchi sistema asosida ishlab chiqilgan keramik koshin namunasini tajriba-ishlab chiqarishda sinash, iqtisodiy samaradorlik hisobini olib borish va amalda foydalanishga tavsiya etish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida, Kulatau koni montmorillonit - gidroslyudali gili va Tuproqqal’a massivi barخان qumi va ular asosida olingan keramik koshinning tajriba namunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qattiq fazali sintez va pishish jarayonlarini keramik materiallar fizik-kimyoviy xossalariga va struktura hosil qilishiga, massa komponentlarining ta’sirini tadqiq etish, hamda laboratoriya tadqiqotini bajarish va ishlab chiqarishda sinash yo‘li bilan ularning maqbul tarkiblari va pishishining texnologik rejimlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari (rentgenfazaviy, differensial-termik, rastr elektron mikroskopik, rentgenofluoressent) va keramika texnologiyasining an’anaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Kulatau koni gilining kimyoviy-mineralogik tarkibi bo‘yicha gidroslyudali montmorillonit xomashyosiga o‘xshashligi aniqlangan va past haroratda pishadigan keramik massa olishda flyus sifatida foydalanish mumkinligi isbotlangan;

Kulatau gili tarkibidagi gidroslyuda va montmorillonit minerallari keramik massada kristall va suyuq faza hosil bo‘lish jarayonlarining jadallashishiga ta’siri, hamda kuydirish haroratini pasayishiga olib kelishi asoslangan;

Tuproqqal’a massivi barخان qumi mineralogik tarkibi bo‘yicha dala shpatli kvarts qumiga o‘xshash bo‘lib, 30 mas.% miqdorda anortit va kam miqdordagi kalsit, hamda temirsimon va gilsimon minerallar aralashmasidan tashkil topganligi aniqlangan;

“gil-barخان qumi” sistemasining turli konsentratsion tarkiblardagi namunalarining yuqori haroratdagi qattiq fazali sintezi jarayonida vollastonit, mullit, anortit, kvarts minerallar ko‘rinishidagi yangi kristall faza va suyuq faza yuzaga kelishi ilmiy asoslangan;

“gil-barخان qumi” sistemasi keramik namunalarida kuydirish haroratiga mos ravishda “tarkib-struktura-xossa” funksional bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlangan.

yangi maqbul tarkibdagi massadan olingan namunalar etalon massaga nisbatan past haroratda, ya'ni 1000-1050°Cda kuydirilganda zich strukturali kristall faza hosil qilishi natijasida yuqori fizik-mexanik xossalarga ega bo'lganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Respublikada ishlab chiqarilayotgan keramik koshin bilan solishtirilganda, 50-100 °C past haroratda pishadigan keramik koshin tarkibini ishlab chiqish va olish uchun Kulatau gili va Tuproqqal'a barخان qumlaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

“Kulatau gili-Tuproqqal'a barخان qumi” kompozitsiyasi asosida, kuydirishning nisbatan past haroratlarida zaruriy fizik-mexanik va texnologik xossalarga ega bo'lgan keramik koshinning energiya tejamkor tarkiblari ishlab chiqilgan;

yangi retseptura tarkibi asosidagi massadan olingan keramik koshin namunalarini ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovidan o'tkazish yo'li bilan aprotatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya ishida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va keramik materiallar texnologiyasining an'anaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tegishli standart talablariga mos ravishda bajarilganligi, hamda tajriba-ishlab chiqarish sinovlari bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “gil-barخان qumi” ikkilamchi sistemasi asosidagi keramik massani qattiq fazali pishishi oqibatida yangi kristall fazalarining shakllanishi, keramik koshinning asosiy fizik-mexanik va texnologik ko'rsatkichlarining o'zgarishi, ularning tarkibi, xomashyo komponentlarining strukturasi pishishdagi fizik-kimyoviy jarayonlariga funksional bog'liqligini aniqlangan, hamda keramik koshin namunalarini tajriba sanoatida sinovdan o'tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublika xomashyo bazasini kengaytirish, Quyi Amudaryo hududida keramik materiallar ishlab chiqarishning iqtisodiy darajasini oshirishga olib keluvchi “gil-barخان qumi” sistemasi asosida talab darajasidagi keramik koshinning energiya tejamkor tarkiblari va past haroratli olish texnologiyasi ishlab chiqishga, hamda xomashyo bazasini kengaytirishni ta'minlashga ma'lumotnoma sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Gil-barخان qumi” sistemasi asosidagi keramik koshin namunalarining qattiq fazali sintezi, xossalari va pishish jarayonlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy komponentlar asosida keramik koshin uchun ishlab chiqilgan tarkibdagi massaning qattiq fazali sintezi va pishishining fizik-kimyoviy jarayonlari “Qurilish va texnik maqsadlarda silikat va funksional materiallar ishlab chiqarish uchun energiya va resurslarni tejovchi kompozitsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish” (2020-2023 yy.) budget mavzusi bo'yicha tadqiqotlarni bajarishda qo'llanma material sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024 yil 28 maydagi 4/1255-1147 sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, past xaroratda keramik koshinlar olishda qattiq fazali sintez va pishish jarayonlari ilmiy asoslangan, fundamental ma'lumotlar olish imkonini bergan;

“Kulatau gili-Tuproqqal’a barxan qumi” kompozitsiyasi asosida ishlab chiqilgan keramik koshin tarkibi “ART GLOSS GALLERY” QKning “2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo’yicha istiqbolli ishlanmalar ro’yhati”ga kiritilgan (“ART GLOSS GALLERY” QKning 2022 yil 23 maydagi 23/2022-4-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, past haroratda pishadigan keramik koshishning talab darajasidagi tarkibini olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzuci bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan 6 ta ilmiy maqola, shulardan 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Keramik materiallarning xomashyo resurslari va olish texnologiyasi tadqiqining zamonaviy holati va ularni rivojlantirish istiqbollari. Qattiq fazali pishish va keramika strukturasi hosil bo'lishi” deb nomlangan birinchi bobida** xomashyo komponentlarini tanlash masalalari va tarkiblarni ishlab chiqish, silikat materiallar ishlab chiqarishda barxan qumlarini qo'llash istiqbollari, hamda keramik koshinning texnologik xossalari komponentlarning ta'sirini tadqiq etish bo'yicha zamonaviy ilmiy-texnik adabiyotlarda chop etilgan ishlarning tahlil va muhokamalarining natijalari keltirilgan. Ushbu yo'nalishda, erishilgan yutuqlar qatorida ularning tarkibi va olish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun noan'anaviy xomashyolarni maqsadli yo'naltirilgan tadqiqotlarga bog'liq bo'lgan muammolar mavjudligi ko'rsatilgan. Turli maqsadlardagi keramik koshinlarni olish texnologiyalari, hamda qattiq fazali pishishning fizik-kimyoviy jarayonlari va boshlang'ich komponentlarni kuydirishda keramik sopolakning struktura hosil bo'lishi bo'yicha ma'lumotlar muhokama qilingan. Nashr etilgan ishlarni tanqidiy tahlil qilish va muhokama qilish asosida ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ob’ektni tanlash, xomashyo komponentlari va keramik massa tajriba namunalarini tayyorlash, hamda tadqiq etish usullari**“ nomli **ikkinchi bobida** tadqiqot ob’ektini tanlash, boshlang’ich gilsimon va toshsimon komponentlar, jumladan Kulatau koni gili va Tuproqqal’a massivining barخان qumlarini, hamda ular asosidagi keramik koshin tajriba namunalarining tayyorlash usullari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning kimyoviy, fraksiya, mineralogik tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, qattiq fazali sintez jarayonlari zamonaviy fizik-kimyoviy va keramik materiallar ishlab chiqarish texnologiyasining zamonaviy usullaridan foydalanish bilan o’rganilgan. Umuman olganda, keramik koshinlar namunalarining fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tadqiq etish natijalari xususiyatlarini o’rganish natijalari, shuningdek ularni olishning texnologik rejimlari ko’rsatilgan.

Dissertatsiyaning “**Kulatau koni gili va Tuproqqal’a massivi barخان qumlarining fizik-kimyoviy tadqiqi, “gil-barخان qumi” sistemasi asosida keramik koshinlar sintez qilish uchun massa tarkiblarini ishlab chiqish**” deb **nomlangan uchinchi bobida** Kulatau koni gili va Tuproqqal’a massivining barخان qumlarining kimyoviy-mineralogik va granulometrik tarkiblari, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish natijalari keltirilgan (1-jadval). Ushbu gil kimyoviy tarkibining o’ziga xosligi qiyin eriydigan gil bilan taqqoslaganda, bir vaqtning o’zida ishqoriy yer oksidlarining ( $\text{CaO}+\text{MgO}>2,0$ ) yuqori miqdoriga nisbatan ishqoriy oksidlarning ( $\text{K}_2\text{O}+\text{Na}_2\text{O}>5,0\%$ ) ko’pligi hisoblanadi, bu esa bo’yovchi oksidlar miqdorining ko’pligi bilan birga ushbu gilni yengil eruvchan qiladi.

Nozik dispers fraksiyalar miqdorlari bo’yicha gil yuqori dispers xomashyo guruhiga (fraksiyaning  $60\% < 1$  mkm dan ko’p), qovushqoqligi bo’yicha yuqori qovushqoq gil xomashyosi (qovushqoqlik soni  $>25$ ) va olovbardoshligi (olovbardoshlik ko’rsatkichi  $1100^\circ\text{C}$  dan kam) bo’yicha yengil eruvchan guruhiga mos keladi (2-jadval).

### 1-Jadval

#### Kulatau koni gili va Tuproqqal’a massivining barخان qumlari namunalarining kimyoviy tarkibi

| Xomashyo nomi           | Oksidlarning miqdori, mas.% |                                |                                |                  |      |      |                   |                  |                 | K.Y. mas.% |
|-------------------------|-----------------------------|--------------------------------|--------------------------------|------------------|------|------|-------------------|------------------|-----------------|------------|
|                         | SiO <sub>2</sub>            | Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> | Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> | TiO <sub>2</sub> | CaO  | MgO  | Na <sub>2</sub> O | K <sub>2</sub> O | SO <sub>3</sub> |            |
| Kulatau gili            | 57,91                       | 17,65                          | 4,58                           | 0,83             | 0,81 | 1,52 | 2,75              | 2,86             | 0,20            | 9,95       |
| Tuproqqal’a barخان qumi | 77,54                       | 7,63                           | 2,61                           | 0,54             | 4,20 | 0,30 | 1,76              | 1,82             | 0,10            | 2,88       |

### 2-Jadval

#### Xomashyo komponentlarining granulometrik tarkiblari


| Tuproqqal’a barخان qumi       |      |       |       |       |       |         |
|-------------------------------|------|-------|-------|-------|-------|---------|
| Zarrachalarning o’lchami, mkm | 500  | 315   | 125   | 100   | 56    | < 56    |
| Zarrachalarning miqdori, %    | 0,25 | 3,19  | 21,6  | 52,62 | 16,11 | 6,0-7,0 |
| Kulatau gili                  |      |       |       |       |       |         |
| Zarrachalarning o’lchami, mkm | >50  | 50-25 | 25-10 | 10-5  | 5-1   | <1      |
| Zarrachalarning miqdori, %    | 2,35 | 5,30  | 7,0   | 6,48  | 17,45 | 61,42   |

2-Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tekshirilayotgan namuna nozik disperslik fraksiya miqdoriga bog'liq ravishda yuqori disperslik gil xomashyosi guruhiga mos keladi. Chunki, <1 mkm o'lchamidagi fraksiya miqdori 60%dan ko'pni tashkil etadi va undagi erkin kvartsning miqdori 16-19 mas.% oralig'ida bo'lgani sababli, ushbu gilni qurilish maqsadlaridagi keramik massa uchun boyitishga xojat yo'q.


Tuproqqal'a barxan qumida o'lchami <56 bo'lgan fraksiya miqdori 6-7% oralig'ida bo'ladi va o'zining tarkibida 30 mas. % anortitni namoyon etuvchi nozik maydalangan dala shpatiga ega bo'lgan dala shpatili kvarts qumi guruhiga mos keladi. Bunga bog'liq ravishda undan dala shpatili kvarts komponenti sifatida keramik koshin tarkibida foydalanilganligi, sababli, ushbu jinsdan turli maqsadlardagi keramik materiallar ishlab chiqarishda zaruriy xomashyo hisoblanishini ko'rsatadi.

Oddiy kvarts qumi bilan solishtirganda Tuproqqal'a massivi barxan qumining kimyoviy tarkibida  $\text{SiO}_2$  miqdori kam va makroskopik ko'rinishida temir gidroksidlari hisobiga sariqroq-kulrangga ega bo'lgan holda mayda zarrachali sochiluvchan material bo'lib hisoblanadi. Temir gidroksidi aralashmasi qumning yuzasida yupqa parda holatida bo'lib, kuydirilgandan so'ng qumni qizil rangga bo'yaydi, bunda kalsitning sochiluvchan minerali kuydirilgandan so'ng oq nuqtalar ko'rinishida bo'ladi. Ushbu qum massivi eol davridagi qayta ishlanishi hisobiga yaxshi ajratilgan.

Kulatau gili namunasining morfologik strukturasi rastr elektron mikroskop yordamida o'rganilgan va uning mikrofotosi 1-rasmدا keltirilgan. Gilning mikrostrukturasi zarrachalari turli qavatli teksturaga ega tartibsiz joylashgan zarrachaga ega illit, gidromuskovit va montmorillonit minerallari miqdorlari uchraydi. Bunda nisbatan yirik (20-25 mkm gacha) va mayda (1-2 mkm) o'lchamdagi zarrachalar ham aniqlangan.



**kat.x5000**




**kat.x500**

### **1-Rasm. Kulatau gili namunasining rastr elektron mikroskop rasmi**

Gilning mineralogik tarkibini rentgenfazaviy tahlil usulida tadqiq etilgan (2a-rasm). Kulatau koni gil namunasining rentgenogrammasida quyidagi minerallarga mos kelgan difraksiya maksimumlari: muskovit  $d=0,256; 0,212; 0,181; 0,137$  nm, gidromuskovit  $d=0,199; 0,138; 0,129$  nm, illit  $d=0,446; 0,256$


nm, seritsit  $d=0,245; 0,223; 0,199$  nm, gidrobiotit  $d=0,166; 0,153$  nm, kvars  $d=0,424; 0,334; 0,245; 0,228; 0,223; 0,212; 0,197; 0,154$  nm, montmorillonit  $d=0,345; 0,257; 0,255; 0,165; 0,149; 0,138; 0,128$  nm, glaukonit  $d=0,197; 0,181; 0,165; 0,153; 0,137; 0,128; 0,125$  nm, kaolinit  $d=0,714; 0,446; 0,228$  nm, hamda dala shpati va temirli minerallarning aralashmalari ham kuzatilgan.



**2-Rasm. Kulatau gili (a) va Tuproqqal'a massivi barخان qumi (b) namunalarining rentgenogrammalari**

Tuproqqal'a barخان qumi namunasining rentgenogrammasida (2b-rasm) kvars  $d=0,424; 0,334; 0,245; 0,228; 0,212; 0,181; 0,138; 0,137$  nm, anortit  $d=0,318; 0,182; 0,154; 0,138$  nm, albit  $d=0,334; 0,245; 0,138; 0,137$  nm, ortoklaz  $d=0,318; 0,213; 0,182; 0,137$  nm va getit  $d=0,336; 0,245$  nm minerallariga mos kelgan oraliqlaroro masofaga ega difraksiya chiziqlari kuzatilgan.


Kulatau gili namunasining TG va HDSC egri chiziqlarida (3-rasm) qizdirish jarayonida uch davrni qayd etuvchi massa va energiya yo'qotilishi kuzatiladi.  $140^\circ\text{C}$  haroratdagi kuchli davrdagi endoeffektni yuzaga kelganligini gigroskopik va qavatlaroro suvning yo'qotilish jarayoni bilan tavsiflanadi.



**3-Rasm. Kulatau gilining kompleks termogrammasi**

400-610°C harorat oralig'idagi 490°C maksimumga ega ikkinchi davr giroksil guruhlarini ajralishi bilan, gilsimon minerallar kristall strukturasi parchalanishidan darak beradi. 900-950°C haroratdagi ekzotermik effekt yangi kristall fazalarni, asosan mayda kristall mullit hosil bo'lishining jadallashuv jarayoni bilan bog'liq.

Kulatau gili 850°C dan 950°C gacha kuydirilgan namunasining fizik-mexanik xossalarini aniqlash natijalari (4-rasm), kuydirish haroratini ortishi bilan namunaning umumiy qisqarishini, hajmiy og'irligini va siqilishdagi mexanik mustahkamligining jadal o'sishi yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Kulatau gili texnologik ko'rsatkichlari bo'yicha qisqa pishish oralig'iga va katta qisqarishga ega kuchli pishuvchi xomashyo bo'lib tavsiflanadi. Shuning uchun, keramik materiallar ishlab chiqarishda undan foydalanish chog'ida, qisqarishni kamaytiradigan va pishish oralig'ini kengaytiradigan korrektirlovchi qo'shimchalarni tanlash zarurdir.



Bundan tashqari, gilni qurilish keramikasi ishlab chiqarish uchun Quyi Amudaryo hududining yuqori sifatli istiqbolli xomashyo manbasi deb qarash lozimdir.

Kulatau gili va Tuproqqal'a barxan qumi orasidagi qattiq fazali pishish, fazaviy o'tish, izomorf almashishlarni va namunalarni erish haroratlarini tadqiq etish uchun "gil-barxan qumi" sistemasining bir qator konsentratsion tarkiblari ishlab chiqildi.

Boshlang'ich komponentlar va ikkilamchi sistema konsentratsion tarkib namunalarining erish haroratlarini aniqlash natijalari 3-jadvalda ko'rsatilgan.


"Gil-barxan qumi" sistemi konsentratsion tarkiblarining erish haroratlarini aniqlash natijalari gil miqdorining ortishi bilan ikkilamchi sistema konsentratsion tarkiblarining erish haroratlari, sistema boshlang'ich komponentlari erish haroratlarigacha, ya'ni Kulatau gilining erish haroratining boshlanishi 1030°C va erishning tugashiga 1070°C mos ravishda pasayishini ko'rsatadi. Bunda, Kulatau gilining yengil eruvchanligiga bog'liq ravishda, konsentratsion tarkiblar erish haroratini sekin-asta pasayishi kuzatiladi.

**“Gil-barxan qumi” sistemasi konsentratsion tarkiblaridan olingan  
namunalari erishining boshlang‘ich va tugash haroratlari**


| Namunalari<br>nomi | Komponentlar, mass.% |                            | T erish., °C |         | Harorat<br>oralig‘i, °C |
|--------------------|----------------------|----------------------------|--------------|---------|-------------------------|
|                    | Kulatau gili         | Tuproqqal’a<br>barxan qumi | Boshlanishi  | Tugashi |                         |
| G-0                | 0                    | 100                        | 1320         | 1400    | 80                      |
| GB-1               | 10                   | 90                         | 1280         | 1350    | 70                      |
| GB-2               | 20                   | 80                         | 1250         | 1320    | 70                      |
| GB-3               | 30                   | 70                         | 1220         | 1280    | 60                      |
| GB-4               | 40                   | 60                         | 1160         | 1210    | 50                      |
| GB-5               | 50                   | 50                         | 1130         | 1180    | 50                      |
| GB-6               | 60                   | 40                         | 1110         | 1160    | 50                      |
| GB-7               | 70                   | 30                         | 1090         | 1140    | 50                      |
| GB-8               | 80                   | 20                         | 1070         | 1120    | 50                      |
| GB-9               | 90                   | 10                         | 1050         | 1090    | 40                      |
| G-10               | 100                  | 0                          | 1030         | 1070    | 40                      |

Tuproqqal’a barxan qumi miqdorining ortishi bilan mos ravishda konsentratsion tarkiblarning erish haroratlari asta-sekin ko‘tariladi. Umuman olganda, “gil-barxan qumi” sistemasi konsentratsion tarkib namunalari past haroratda pishadigan massa guruhiga kiritish mumkin.

Kulatau gili va Tuproqqal’a barxan qumi orasida 900-1050°C harorat oralig‘idagi qattiq fazali reaksiya natijasida, kimyoviy reaksiya bo‘yicha dastlab, gilsimon minerallarni parchalanishi va dekarbonizatsiya jarayoni yuzaga keladi:



1100-1400°C harorat oralig‘ida suyuq faza ishtirokida quyidagi reaksiya bo‘yicha o‘zaro kimyoviy ta’sir yuzaga keladi:



Umuman olganda, Kulatau gili va Tuproqqal’a barxan qumi orasidagi qattiq fazali kimyoviy reaksiyaning pirovard natijasida mullit, gematit, anortit, temirli shpinel, tridimit va qoldiq kvarsning yuqori haroratli shakli hosil bo‘ladi.


Shunday qilib, kuydirilgan tajriba namunalari oydinlashgan qonuniyatlar “gil-barxan qumi” sistemasi asosida keramik koshinning yangi tarkiblarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Keramik koshin namunalari qattiq fazali pishish, struktura hosil qilish jarayonlari va fizik-mexanik xossalari va ularning ishlab**

**chiqarishdagi tajriba sinovlari**” deb nomlangan **to‘rtinchi bobida**, sintez qilingan keramik koshin namunalarining qattiq fazali pishish, struktura hosil qilish, fazaviy o‘tish jarayonlari va fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish, hamda ishlab chiqarish sharoitida aprobatsiyadan o‘tkazish natijalari keltirilgan.

Koshin massasi tajriba namunalaridagi qattiq fazali pishish va fazaviy o‘tish jarayonlarini tadqiq etish kuydirishning turli haroratlaridagi fizik-mexanik xossalarini aniqlash yo‘li bilan olib borildi (5-rasm).

Bog‘liqlik egri chizig‘idan ko‘rinib turibdiki, ya’ni 850°C dan boshlab, tajriba namunalarining xossalari sezilarli o‘zgaradi: 850-1000°C harorat oralig‘ida M-7 namunasida va 900-1000°C harorat oralig‘ida M-9 namunasida, namunalar chiziqli qisqarishi, hajmiy og‘irligi va mexanik mustahkamliklari ortishining jadallashuvi, hamda ular suv shimuvchanligining ko‘pgina pasayishi kuzatiladi.



**5-Rasm. Tajriba namunalarining suv shimuvchanligi (a), hajmiy og‘irligi (b), umumiy qisqarishi (v) va egilishga mustahkamliklarining (g) kuydirish haroratlariga bog‘liqligi**

Namunalarning umumiy qisqarishi 850°C haroratda M-7 namunasi uchun 2,3% ni, 900°C haroratda M-9 namunasi uchun 2,5% ni tashkil etadi. 1000°C da M-7 va M-9 maqbul tarkiblari uchun umumiy qisqarishi mos ravishda 4,0% va 3,7% gacha ko‘payadi (5v-rasm).


Ushbu harorat oralig‘ida, M-7 massadan olingan namunaning suv shimuvchanligi 19,5% dan 4,8% gacha va M-9 massadan olingan namunada 16,3% dan 6,4% gacha mos ravishda pasayadi. Bunda, M-7 massasi uchun egilishga mustahkamlik 26 MPa va M-9 massasi uchun 22 MPa, ularning hajmiy og‘irligi esa mos ravishda 2,02g/sm<sup>3</sup> va 2,00g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Xaroratning 1000 °C dan 1050°C gacha oshirilishida M-7 va M-9 namunalar uchun umumiy qisqarish ko‘pgina pasayadi, chiziqli qisqarishi, suv shimuvchanligi, egilishga mustahkamligi va hajmiy og‘irliklarining egri chiziqlari sekin-asta gorizontall chiziqqa o‘tadi, bu esa koshin masasining pishish jarayonini tugallanganligidan darak beradi. Haroratning mos oraliqlarida namunalarning umumiy qisqarishi M-7

massasi uchun 4,6% gacha va M-9 massasi uchun 3,9% gacha ortadi (5v-rasm). Ushbu harorat oralig'ida hajmiy og'irlikning va egilishga mustahkamlikning sezilarli ortishi kuzatiladi. Namunalardagi haroratning keyinchalik 1110°C gacha ko'tarilishida, M-7 va M-9 namunalari uchun suv shimuvchanligi, egilishga mustahkamligi va hajmiy og'irligi sezilarli kamayadi. Namunalarda erish belgilari, deformatsiya elementlari yuzaga keladi va ko'pchilik sodir bo'ladi.

Mustahkamlik va zichlik bo'yicha M-7 va M-9 namunalari M-ZM etalon massaga nisbatan maqbul fizik-mexanik xossalarni namoyon etishi aniqlandi. "Gil-barxan qumi" sistemasi asosida ishlab chiqilgan tarkiblar, keramik koshinning kuydirish haroratini 100°C (M-7 uchun) va 50°C (M-9 uchun) pasayishgiga olib keldi. Shuning uchun, keyinchalik keng tadqiqot o'tkazish maqsadida ushbu massalardan koshin namunalari tanlab olindi.

Turli haroratlarda kuydirilgan M-7 namunasidagi fazaviy o'tishlarni tadqiq etishda, 850°C haroratda gematit chizig'ining yuzaga kelishi, haroratning 1050°C gacha ortishi bilan kamayishi va 1100°C haroratda yo'qolishi ko'rsatilgan. Rentgenogrammada 850°C-950°C harorat oralig'ida ta'sirlanmagan albitga tegishli bo'lgan chiziqlar 1000°C haroratda to'laligicha yo'qolganligi ko'rsatilgan. 850°C-950°C harorat oralig'ida vollastonit kristallarining kuchsiz chiziqlari kuzatilgan va 1000°C haroratda yo'qolib, anortitga o'tgan va 1100°C dan harorat ortishi bilan anortit chizig'ining jadallashuvi bir muncha o'sganligi aniqlangan.

M-7 namunasining rentgenogrammasida (6-rasm) 950°C haroratda mullitning kuchsiz chiziqlari yuzaga kelib, kuydirish haroratining 1100°C gacha ortishi bilan ular miqdorining ko'payishi va jadallashuvi o'sgan. Haroratning 850°C dan 1100°C gacha ortishi bilan kvarts chiziqlari uning massadagi erishi sababli, sekin-asta kuchsizlanib boradi, ulardan ayrimlari 950°C haroratda tridimitga o'tadi. 1100°C haroratda namunalarda shisha faza miqdorining ko'payishi, rentgenogrammalarda galo va difraksiyalarni aks etgan yuzadagi cheksiz nisbatdan darak beradi.




